

O'QITUVCHI VA O'QUVCHILAR O'RTASIDA SAMARALI ALOQANI TA'MINLASH UCHUN ELEKTRON TA'LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH

Kodirov Akbar Shuxratovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi” kafedrası Katta o'qituvchisi

E-mail: akbar2005ak@gmail.com

Sa'dullayeva Mashxura Shokir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Matematika va informatika yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

E-mail: sadullayevamashxura22@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17501137>

Annotatsiya: Ushbu maqola o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida samarali aloqani ta'minlashda elektron ta'lim platformalarining ahamiyatini ko'rsatadi. O'qituvchilar uchun ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali bo'lishida foydalaniladigan elektron ta'lim portallari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish va o'zaro aloqalarni yaxshilash uchun dasturiy vositalarning ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik dasturiy vositalar, o'qituvchilar, o'quvchilar, ta'lim jarayoni, interaktivlik, aloqa, innovatsion yechimlar, electron ta'lim portallari

Kirish

Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida samarali aloqa o'rnatish ta'limning muhim omillardan biridir. Zamonaviy texnologiyalar va elektron ta'lim platformalari ta'lim jarayonini yanada yaxshilash imkonini beradi. O'qituvchilar, o'quvchilarning ehtiyojlarini tushunish va ularga mos ta'lim usullarini qo'llashda dasturiy vositalardan foydalanishlari kerak. Ushbu maqolada elektron ta'lim platformalarning ahamiyati, ularning o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqani qanday yaxshilashi va ta'lim jarayoniga qo'shadigan qiymati tahlil qilinadi. Maqsadimiz, o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga undash va o'quvchilar bilan muloqotni kuchaytirishdir.

O'zbekistonda raqamli ta'lim tizimi rivojlanishiga katta e'tibor berilib, ko'plab elektron ta'lim platformalari ishlab chiqilgan. Ular o'qitish jarayonini soddalashtirish, samaradorligini oshirish va raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan

O'zbekiston ta'lim tizimida elektron ta'lim portallari juda katta ahamiyatga ega bo'lib, ular zamonaviy ta'lim jarayonini raqamlashtirish va samarali o'tkazishga yordam beradi. Elektron ta'lim portallari o'quvchilar va o'qituvchilarga darsliklar, o'quv materiallari, video darslar, ilmiy maqolalar, testlar kabi turli resurslarga internet orqali keng kirish imkonini beradi. Bunga misol qilib Ziyonet va Milliy ta'lim elektron kutubxonasi (eduportal.uz) platformalarini olish mumkin, ular keng ko'lamli o'quv materiallarini taqdim etadi. Bu resurslar orqali o'quvchilar har qanday joyda va vaqtda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Elektron ta'lim portallarining asosiy afzalligi masofaviy ta'limni qo'llashidir. Ayniqsa, pandemiya davrida bu portallar ta'lim jarayonini uzluksiz davom ettirish uchun juda muhim rol o'ynadi. Google Classroom, Zoom va Microsoft Teams kabi global platformalar bilan integratsiya orqali masofadan turib darslarni tashkil etish mumkin bo'ladi. Bu qishloq joylarida yashovchi o'quvchilar uchun ham teng imkoniyatlar yaratadi.

Google Classroom - maktab va o'qituvchilarga sinf a'zolari bilan xavfsiz muhitda ma'lumotlarni bo'lishish va muloqot qilish uchun virtual sinflarni yaratish imkonini beradi.

Zoom - Zoom Video Communications kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan videokonferensiyalar uyushtirish imkonini beruvchi dastur. Pullik va bepul rejimlari bor. U bepul akkauntlar uchun eng ko'pi 100 kishini qo'shish mumkin bo'lgan vaqt rejimi 40 daqiqagacha chegaralangan videotelefoniya servisini taqdim etadi.

Elektron ta'lim portallari o'quvchilarning individual ehtiyojlari va bilim darajalariga mos tarzda materiallarni taqdim etishga yordam beradi. Misol uchun, portallar testlar orqali bilimlarni mustahkamlash imkoniyatini beradi, bu orqali o'quvchilar o'zlarining zaif tomonlarini ko'rib, o'qituvchilar esa ularga yo'naltirilgan darslarni taklif etishi mumkin.

O'zbekistonning asosiy milliy ta'lim portallari quyidagilardir:

- Ziyonet — O'zbekistonning milliy ta'lim portali bo'lib, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun turli darsliklar, o'quv materiallari, video darslar va boshqa ta'lim resurslarini taqdim etadi.
- EduMarket.uz — O'quvchilar, talabalar va pedagoglar uchun onlayn ta'lim platformasi bo'lib, o'quv materiallari, testlar va kurslarni taqdim etadi.
- Milliy ta'lim elektron kutubxonasi (eduportal.uz) — Kitoblar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarini elektron shaklda taqdim etuvchi milliy kutubxona.
- Test uz portal — O'zbekiston ta'lim tizimidagi test sinovlari va ularni onlayn tarzda yechish imkonini beruvchi platforma.

Elektron ta'lim portallarida o'quv materiallari tez-tez yangilanib turadi. Bu orqali o'qituvchilar va o'quvchilar eng so'nggi bilim va ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatiga ega. An'anaviy kitoblar va darsliklar bilan taqqoslaganda, raqamli resurslar tezroq yangilanadi, bu esa zamonaviy talablarga mos keladigan ta'lim berishni ta'minlaydi.

Elektron ta'lim portallari orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini monitoring qilish imkoniyati mavjud. Masalan, testlar va baholash tizimlari orqali o'quvchilarning bilimlari doimiy ravishda tahlil qilinadi, bu esa ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchilar o'quvchilarni qayerda qiynalayotganini aniqlab, ularga moslashuvchan tarzda yordam ko'rsatishlari mumkin.

Elektron ta'lim portallari xalqaro ta'lim standartlariga moslashishga yordam beradi. Turli xil xalqaro elektron resurslar va ta'lim dasturlari orqali o'quvchilar va o'qituvchilar global ta'lim standartlari va yangiliklari bilan tanishib borishlari mumkin.

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida samarali aloqani ta'minlashda pedagogik dasturiy vositalar, xususan, elektron ta'lim portallari juda katta ahamiyatga ega. Ular nafaqat ta'lim jarayonini optimallashtirish, balki o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Elektron portallar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlash, testlardan o'tish va zamonaviy resurslardan foydalanish imkoniga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esa ta'lim jarayonini yanada interaktiv va individualizatsiyalangan shaklda olib borishlari mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, masofaviy ta'lim imoniyatlari, interaktiv ta'lim vositalari va har qanday joyda va vaqtda o'quv materiallariga kirish imkoniyati o'quv jarayonini jahon miqyosida yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonidagi raqamlashtirish o'qituvchilar va o'quvchilar uchun iqtisodiy samaradorlikni ta'minlab, ilmiy materiallarning tezkor yangilanishiga ham sharoit yaratadi. O'zbekiston ta'lim tizimida

elektron ta'lim portallarining o'rni katta bo'lib, ular orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirish va xalqaro ta'lim standartlariga moslashish imkoniyatlari kengaymoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shuxratovich, Akbar Kodirov. "The importance and advantages of using information technologies in education." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.1 (2022): 46-50.
2. Shuxratovich, Kodirov Akbar, Choriyeva Xursanoy Xusanovna, and Mirqobilov Bekzod Abdulla o'g'li. "O'RTA TA'LIM MAKTABLARNING BOSHLANG'ICH TA'LIM SINFLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA MUAMMO, YECHIM VA TAKLIFLAR." *Journal of new century innovations* 43.4 (2023): 96-98.
3. Shuxratovich, Kodirov Akbar. "KATTA MA'LUMOT BAZALARINI PARALLEL ISHLOV BERISH USULLARINI VA MODELLARINI O'RGANISH." *Journal of new century innovations* 43.4 (2023): 93-95.
4. Shuxratovich, Kodirov Akbar. "VATANIMIZDA VENDING NUSXALASH MASHINASINI AMALDA QO'LLASHNING SAMARADORLIGI." *Journal of new century innovations* 43.4 (2023): 90-92.
5. Kodirov, Akbar Shuxratovich, and Muborak To'lg'in Qizi Nomozova. "MASOFAVIY TALIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLI ASOSLARI." *Academic research in educational sciences* 4.CSPU Conference 1 (2023): 753-756.
6. Kodirov, Akbar, Shaxribonu Qo'ziyeva, and Mashkura Sa'dullayeva. "O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH UCHUN "EASY RENT" LOYIHASINING ISTIQBOLLARI." YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).
7. Sh, Kodirov A. "THE ROLE OF THE" ONE MILLION UZBEK PROGRAMMERS" PROJECT IN INTRODUCING THE YOUTH OF OUR COUNTRY TO THE IT ENVIRONMENT ACCORDING TO THE" DIGITAL UZBEKISTAN 2030" STRATEGY." *Экономика и социум* 10 (125) (2024): 205-211.
8. Kodirov, Akbar, Gulzor Qamariddinova, and Shahnoza Eshmurodova. "O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM RIVOJLANISHINI SHAKLLANTIRUVCHI IQTISODIY VA MOLIVAVIY OMILLARINI O'RGANISH. "YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).